



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 14-avgust

VI-105-106-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

### **Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i Sh.Sultonovning “Tumanda umumi o'rta ta'lim maktablarining 2024-2025-o'quv yili tayyorgarlik ishlari to'g'risida”gi hisoboti haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PF-6108-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi PQ-4884-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-iyundagi “Umumi o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 345-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonuni 6 va 24- moddasiga asosan, VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 105-sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i Sh.Sultonovning “Tumanda umumi o'rta ta'lim maktablarining 2024-2025-o'quv yili tayyorgarlik ishlari to'g'risida”gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Sh.Sultonov)ga:

-2024-2025 o'quv yiliga puxta tayyorgarlik ko'rish, umumi o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning tahsil olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, maktablarning moddiy-texnik bazasi holatini yaxshilash borasidagi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rsin;

-11-sinf bitiruvchilarining oliy ta'limga o'qishga qamrab olinmagam qismini ishga joylashtirilishini qat'iy nazoratga olsib, ularni kasb-hunarga yo'naltirishlariga alohida e'tibor qaratsin;

-yangi o'quv yilida fanlar kesimida yetishmayotgan o'qituvchilarni oliygohlar bilan yaqindan aloqa o'rnatgan holda jalb qilish chorasini ko'rsin;

-ta'lim muassasalarini moddiy-texnik bazasini saqlanishini nazorat qilgan holda, ularni yangi o'quv yiliga tayyor holga keltirish chorasini ko'rsin;

-qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilayotgan o'rta ta'lim maktablari binolarida bajarilgan ishlar sifatini nazorat qilish;

-ta'lim sifati past maktablarga boshqa hududlardan yuqori malakali pedagog kadrlarni jalg etish hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida kadrlar qo'nimiga alohida e'tibor qaratsin;

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova) hamda tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rnibosari (O.Shirinov) tumandagi umumiy o'rta ta'lim maktablarini nazorat qilib borish ishlari topshirilsin:

5. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova) hamda tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rnibosari O.Shirinov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKNOVICH